

SSSR DAVLATINING PARCHALANISHI VA MUSTAQIL DAVLATLAR HAMDO‘STLIGI (MDH)NING VUJUDGA KELISHI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6382783>

Po‘latov Sarvarxon Baxtiyorxon o‘g‘li

*Namangan davlat universiteti
tarix fakulteti 2-bosqich magistranti*

Annotatsiya: *ushbu maqolada davlatlarning inson huquqlari va erkinliklarini ta‘minlash, tashqi siyosiy faoliyatini muvofiqlashtirish, umumiy iqtisodiy makonni vujudga keltirish, transport va aloqa tizimlarini rivojlantirish, aholi sog‘lig‘i va atrof-muhitni muhofaza qilish, ijtimoiy masalalar va immigratsiya siyosati, uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash, mudofaa siyosatida hamkorlik qilish va tashqi chegaralarni qo‘riqlash to‘g‘risida yozilgan.*

Kalit so‘zlar: davlat, huquq, iqtisod, transport, aholi, atrof-muhit, muhofaza, immigratsiya, siyosat, jinoyatchilik, mudofaa, hamkorlik, chegara.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) — davlatlararo tashkilot. 1991-yil 8-dekabrda Minskda Belorussiya, Rossiya, Ukraina tomonidan tuzilgan. Ana shu davlat rahbarlari imzo chekkan Bitimda SSSR chuqur tanazzulga uchrab parchalanib ketish natijasida yo‘q bo‘lganligi qayd qilindi, uchala davlat siyosiy, iqtisodiy, gumanitar, madaniy va boshqa sohalarda hamkorlikni rivojlantirishga intilishini bayon etdi. 1991-yil 21-dekabrda Bitimga Ozarbayjon, Armaniston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Moldaviya, Tojikiston, Turkmaniston, O‘zbekiston qo‘shildi, ular Belorussiya, Rossiya va Ukraina bilan birga MDHning maqsad va qoidalari to‘g‘risidagi Deklaratsiyaga Olmaota shahrida imzo chekdilar. 1993-yil MDHga Gruzija qo‘shildi. 1993-yil MDH Ustavi qabul qilindi, u davlatlarning inson huquqlari va erkinliklarini ta‘minlash, tashqi siyosiy faoliyatini muvofiqlashtirish, umumiy iqtisodiy makonni vujudga keltirish, transport va aloqa tizimlarini rivojlantirish, aholi sog‘lig‘i va atrof muhitni muhofaza qilish, ijtimoiy masalalar va immigratsiya siyosati, uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash, mudofaa siyosatida hamkorlik qilish va tashqi chegaralarni qo‘riqlashda birgalikda faoliyat yuritishni nazarda tutadi.

MDH haqiqiy a‘zolari bilan birga MDH faoliyatining ayrim turlarida qatnashuvchi a‘zolar bo‘lishi mumkin. MDHning quyidagi organlari tashkil qilingan: Davlat boshliqlari kengashi, Hukumat boshliqlari kengashi, Tashqi ishlar vazirlari kengashi, Davlatlararo iqtisodiy qo‘mita markazi Sankt-

Peterburgda bo'lgan Parlamentlararo assambleya va boshqa MDHning doimiy ishlovchi organi Minsk shahrida joylashgan Muvofiqlashtiruvchi maslahat qo'mita hisoblanadi. Uning qoshida doimiy kotibiyat ishlaydi. Davlat boshliqlari kengashi 1 yilda kamida 2 marta o'tkaziladi. MDH organlarining faoliyati MDH Nizomi bilan tartibga solinadi.

MDH sobiq SSSR hududida fuqarolik urushi kelib chiqishining oldini oldi, mamlakatlarni bosqichma-bosqich xalqaro munosabatlar tizimiga kirib, mustaqilliklari, suverenitetini mustahkamlashga ko'mak berdi. MDH o'z faoliyati davomida haddan tashqari ko'p qarorlar qabul qildi-yu, lekin aksariyat hollarda ularning ko'pi bajarilmadi. Hozir MDH ga kiruvchi davlatlarning aholisi 283 mln. kishini tashkil etadi. Bu aholining 120,5 mln. iqtisodiyotda mashg'uldir. Ularning 29,4 foizi sanoat va qurilishda, 21,5 foizi qishloq xo'jaligi, o'rmon va baliqchilik sohasida ishlaydi.

O'zbekiston o'z milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda MDHda ishtirok etmoqda. U MDHga davlatlar ustidan tuzilgan tashkilot sifatida emas, balki mustaqil davlatlarning harakatlarini muvofiqlashtiruvchi organ sifatida qaraydi. MDH hududida davlatlarning teng huquqliligi asosida yagona iqtisodiy makonni yaratish, tashkilotda umuman iqtisodiy munosabatlarning ustuvorligiga erishish, davlatlar o'rtasida savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish uchun harakat qiladi.

Bu tashkilotga 11 ta mustaqil davlat a'zodir:

- Armaniston-21-dekabr 1991
- Ozarbayjon-21-dekabr 1991
- Belarussiya-8-dekabr 1991
- Qozog'iston -21-dekabr 1991
- Qirg'iziston-21-dekabr 1991
- Moldova-21-dekabr 1991
- Rossiya-8-dekabr 1991
- Tojikiston-21-dekabr 1991
- Turkmaniston-21-dekabr 1991
- Ukraina-8-dekabr 1991
- O'zbekiston -21-dekabr 1991.

Shuningdek, dunyoning boshqa mamlakatlari, jumladan:

1. Mo'g'uliston MDHning ba'zi strukturalarida kuzatuvchi vazifasini bajarib kelmoqda.

2. Afg'oniston 2008-yili MDH tarkibiga kirish xohishini bildirdi, MDHning "Parlamentlararo Assambleya"sida kuzatuvchi vazifasini bajarib kelmoqda.

Bundan tashqari, O'zining MDH tarkibiga kirishini xohlayotgan qator tan olinmagan davlatlar, avtonom rayonlar BMT ga a'zoliklarini bildirishgan. Ushbu davlatlar bilan MDH kelishuvni amalga oshirmagan. Bular:

- Abxaziya;
- Ukrainadagi Qrim;
- Tog'li Qorabog' Respublikasi;
- Pridnestrov Moldova Respublikasi;
- Rossiyadagi Checheniston;
- Rossiyadagi Tatariston;
- Xorvatiyadagi Serbskaya Kraina Respublikasi;
- Sobiq Yugoslaviya.

1991-yil 8-dekabr kuni Rossiya, Ukraina va Belorussiya rahbarlari Viskuli (Belovej pushchasi)da SSSRning tugatilganligi to'g'risidagi hujjatni imzolashdi. Shu bilan Mustaqil davlatlar hamdo'stligi (MDH) tashkil topdi. MDH ga asta-sekin 12 respublika a'zo bo'lib kirdi. Boltiqbo'yi davlatlari bundan mustasno. Har bir respublikaga o'z hududi va undagi tabiiy boyliklar, aholi, ishlab chiqarish korxonalari, aholi jon boshiga yalpi ishlab chiqarish mahsulotlari ko'rsatkichi nasib etdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekistonda politologiya [2001-yil 18-oktabrda Toshkent shahrida o'tkazilgan respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari], T., 2002;
2. Sayfiddin Jo'rayev. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
3. Neshatayeva T. N., Mejdunarodnie organizatsii i pravo. Novie tendensii v mejdunarodno-pravovom regulirovanii, M., 1999.
4. <https://uz.wikipedia.org/>